



Bargli salat nav namunalarini plyonkali issiqxonalarda yetishtirish texnologiyasi

Abdumalik Baymirov (assistant) **M.Eshmatova**, **E.Erkinov** (talabalar) Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Tel. 88-849-99-88 abdumalikbaymirov@b.k.ru

Annotatsiya

Salat, salat latuk (*Laktuca Sativa*)-murakkabguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simliklar turi, sabzavot ekini, 5 xil turi bor. Barg salat, uziladigan salat, boshli salat, romen yoki rim salati va sarsabil salati. Jahondagi barcha dehqonchilik mintaqalarida ekiladi. Yosh barglari, poyasi, boshchasi iste'mol qilinadi. Bargli salat nav namunalarini plyonkali issiqxonalarda maqbul oziqlanish maydonini hosildorligiga ta'sirini o'rganish hamda oziqlanish maydonini eng maqbul me'yorlarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Annotation

Lettuce (*Laktuca sativa*) is an annual plant belonging to the family of complex flowers. This is a vegetable crop. There are 5 types of salads in total. There are leaf salad, cut salad, head salad, roman or Roman salad and sarsabil salad. The study of the effect of leaf salad varieties on the productivity of the optimal feeding area in film greenhouses, as well as the development and implementation of the most acceptable standards of feeding area.

Аннотации

Салат-латук (*Laktuca sativa*) - растение животного происхождения, относящееся к семейству сложных цветков. Это овощная культура. Всего в меню 5 видов салатов. Есть листовой салат, нарезанный салат, салат из головы, римский или римский салат и салат сарсабил. Изучение влияния сортов листовых салатов на продуктивность оптимальной зоны кормления в пленочных теплицах, а также разработка и внедрение наиболее приемлемых нормативов площади кормления.

Kalit so'z. Bargli salat. Bir yillik o'simlik. Bosh salat. Romen salati. Murakkabguldoshlar oilasi. 20000 dan ortiq turi mavjud.

Keyword. Leafy salad. An annual plant. Main salad. Roman salad. A family of complex flowers. There are more than 20,000 types.

Ключевое слово. Листовой салат. Однолетнее растение. Главный салат. Римский салат. Семейство сложных цветов. Существует более 20 000 видов.



Dunyoda global iqlim sharoitining o'zgarishi bilan birga aholi sonining keskin oshib borishi oziq ovqat muamosini doimiylikini ta'minlamoqda. Hozirgi vaqtda yer yuzida aholi soni 7 mlrd. dan oshib ketganligi fikrimizning isboti deb bilishimiz mumkin. Aholi soning bu qadar tez o'sishi, aholining oziq ovqatga bo'lgan talabini qondirish va ularni sifatli sabzavot mahsulotlari bilan taminlashni taqazo etadi. Issiqxonalarda sabzavot, poliz va meva mahsulotlarini yetishtirish bugungi kunda sezilarli darajada oshib bormoqda.

Mamlakatimiz qishloq xojaligi tizimida issiqxona xo'jaligini rivojlantirish, kengaytirish va uni takomillashtirish bo'yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Himoyalangan yer sabzavotchiligi chet el firmalari bilan plyonkali issiqxonalarni qurish qurish va foydalanishga topshirish, shuningdek mahalliy materiallardan qurilgan loyihalasiz plyonkali issiqxonalarda bargli salat va ko'katlarni yetishtirishda keng miqyosida foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Buning natijasida mavjud plyonkali issiqxonalarda bargli salatni nav va duragaylarini yetishtirish va hosildorligini oshirish borasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-yanvardagi PQ 4575-sonli "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategeyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, Issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha 2018-yil 22-noyabrdagi O'zbekiston respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevni PQ 4020 sonli va issiqxona va bog'dorchilik agentligini tashkil etish qarori muhim o'rin egalladi.

Dunyoning turli davlatlari sharoitlarida bargli salat navlarini tanlash,navlarni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar G.A.Sexanovskaya, V.M. Markov, M.A.Borushko, A.B.Bakiyev, S.Maxkamov, N.VLeshuk, K.M Krivitskiy, N.VMayster, I.B.Kutovenko, G.S.Osipov, V.M.Kondratyev,K.R. Popko, N.V.Tixa, I.V.Litvin, N.P.Kostenko, S.V.Lyubovava ko'plab boshqa olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Plyonkali issiqxonada bargli salat yetishtirishda maqbul oziqlanish maydonini aniqlash kerak va shuningdek, bargli salat navlarining agrobiologik xususiyatlariga asosan hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan navlarini tanlash zarur. Shu bilan bir qatorda plyonkali issiqxonalarda bargli salat nav namunalarini yuqori hosildorligini oziqlanish maydoniga bog'liqligiga e'tibor berish kerak.



Bargli salat murakkabguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, bu oila ikki

pallali o'simliklarning eng katta oilasidir. Jumladan, 1150dan 1300

gacha avlod va 20000 dan ortiq

turni o'z ichiga oladi. Bargli

salat yer yuzining deyarli hamma joyida uchraydi. Tundradan ekvatorgacha, dengiz qirg'oqlaridan

Alp tog'lariga qadar bu o'simlik bo'lishi mumkin.

Salatning (*Lactuca sativa* L) turi deyarli barcha yer yuzidagi navlarda uchraydi. U Yevrosiyoning 100-150

turini, Janubiy Afrikaning tropik

va Shimoliy Afrikaning ayrim turlarini

birlashtiradi. Hozirgi kunda O'zbekiston mintaqasida salatning birinchi turi Bargli salat yetishtirib kelinmoqda. Salat (*Lactuca sativa* L)- bir yillik o'simlik bo'lib, o'q ildizli, tuproq yuziga yaqin joylashgan ko'p sonli yon shoxlardan iborat. Barg shakliga va bargning tuzilishi hamda tup ko'rinishi, bosh o'raslii jihatidan salat bir necha turlarga ajratiladi.

Bargli salat barglari o'tiruvchan, yaxlit yoki tilim-tilim turli shaklardan iborat.

Barglarni yuzasi pufakli, burushgan yoki deyarli silliq, och-yashil, yashil, to'q yashil va qizil rangda. Barglarni kesilgan joyda sutli shira chiqib turadi. Gul poyalarining balandligi 60-120sm. To'pgullari-savatchaga to'plangan, gullar sariq rangda, ikki jinsli fakultativ o'zidan changlanadi. Salat ildiz tizimini tez rivojlantiradi, ildizlarning qattiq massasini hosil qilib, tuproqning yuza qatlamida ko'plab ildiz shoxlarini hosil qiladi. Shu tufayli u tuproqning chuqur qatlamidagi ozuqa zaxiralarini intensiv ravishda ishlatadi.

Gullash bosqichida poyasi tik balandligi 60-120 sm, kuchli tarvaqaylab, o'rta savatlardan ko'p sonli guldor hosil qiladi. Savatlar keng, zich shoxsimon qalqonchaga yig'iladi. Har bir savatda taxminan 16 donadan gul, diametri 1,1-1,5 sm ni tashkil qiladi. Tuxumdoni bir ko'zli. Urug' mevasi kumushrang-kulrang, och yoki qora. Urug' donalari uzun bo'yli oval yoki cho'zinchoq oval 4.5mm uzunlikdagi siqilgan 7-11 uzunlamasiga qovurg'ali, tepasida toraygan, kipriksimon, uzun burunga o'tadi. Urug' tepasida bir to'da oq, yumshoq, mayda tishli tuklar bilan qoplangan.

Urug'lar mayda, og'irligi 0,8-1,6 gr. Bitta o'simlikdan 10-12g urug' olish mumkin. Urug'lar unuvchanligini 3-4 yil saqlaydi. Salat qadim zamonlardan o'stirilgan va misrliklar va yunonlar ovqat sifatida, g'am dorivor sifatida ham ishlatishgan. Salat parhez taom bo'lib tarkibi C, E va K vitaminlarga mineral tuzlarga, oqsil, uglevodlar, organik birikmalarga juda boy. Bargli salat tarkibidagi vitamin C inson organizmidagi metabolizm jarayonida muxim vazifalarni bajaradi.

Yashil va zanjabill ekinlarga bo'lgan ehtiyoj har bir kishiga yiliga 18,0-20,4 kg ni yoki organizmning sabzavotga bo'lgan ehtiyojining 16,5 % ni tashkil qilishi kerak. Bir kishiga salat istemol qilish darajasi yiliga kamida 3% ni tashkil qiladi.

Salat yuqori sifatli parhez mahsulotidir. Bu ko'plab vitaminlar manbai sifatida insonning ovqatlanishida qimmatli o'rin tutadi. Bargli salat barglarida deyarli hamma ma'lum bo'lgan vitaminlar, shuningdek, minerallar, organik kislotalar va inson organizmi uchun zarur bo'lgan bir qator fiziologik faol moddalar bor. Bargli salatni muntazam iste'mol qilish ko'plab kasalliklarni oldini oladi va sog'liqni saqlaydi.

Bizda bargli salat o'simligiga bo'lgan talab juda ham kam. Ayniqsa ishlab chiqarish atigi 1% ni tashkil etadi. Bu o'simlikning seleksiyasi bilan esa turli mamlakatlarda turlicha yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda. Bargli salatni qadimdan Misrda dorivor o'simlik sifatida iste'mol qilishgan. U muntazam yeyilsa qon bosimini pasaytirishda, ichak kasalliklari, oshqozon yarasini davolashda arteroskleroz, tromboflibitning profilaktikasi hisoblanadi. Shuningdek buyrakdagi toshlarni maydalashda yordam beradi. Tarkibida laktutsin moddasi ko'p bo'lganligidan nerv xastaliklarini davolashda ahamiyatga ega.



Salatbarg sovuqqa chidamli o'simlik bo'lib ochiq maydonlarda ko'kat mahsuloti erta ko'klamdan aprel oxiri may oylari boshlarida yetilib, toki kech kuz-noyabr oyining o'rtalarigacha hosil berish davri davom etadi. O'simlikni unib chiqishi ob-havoga, iqlimga bog'liq, salat o'simligi ob-havo yaxshi kelgan yillari yanvar oyining oxiri, fevral oyining boshlarida unib chiqadi. Bargli salatni sug'orish meyori 1 gektarga mavsumda 2000 dan 6000 m gacha. Tuproqning yetarli namligi salat barglarini mayin, shirin va karsildok bo'lib yetishini ta'minlaydi. Tuproqning yetararli namligi 60-70 %, quyoshli kunlarda 70 -80%, bulutli kunlarda esa 60-70% tashkil qilishi kerak.

Bir kunda salat o'simligi 500sm² dan 1m² gacha 220 g ko'k massa beradi. 500sm² dan 1 m² bo'lgan gacha oziqlanish maydonida 20 tup salat o'simligini o'stirish mumkin. Bargli salatning eng yetilgan yuqori davrida 1 gektardan 2.2 tonna umumiy ko'k massa beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alborishvili CH.A. Izmenchivost xozyaystvo-biologicheskix osobennostey salata i koriandra v zavisimosti ot srokov seva. // Tr. Po prikl. Bot. Bot., gen. I seleksii. T.45. B.I.1971.-C.216-227.
2. Alpatyev A.V. Ocheredniye zadachi v oblasti seleksii i semenovodstva
Ovoshnix kultur. //Sel. i sem-vo kart., ovoshn. k-r i vinograda.-m.,-C. 90-92
3. Archakova L.I. Perespektivniye sorta listovogo i kochannogo salata. Inf.l., Murmanok.1981-S.3.
4. Archakova L.I., Komarova R.A. Kochanniy salat v usloviyax otkritogo
Grunt Murmanskoy-oblasti. //Byull. VIR, V. 172, -L. 1987, - S. 49-52.
5. Aripova SH.R. Salatbarg yetishtirish. 100 kitob to'plami., Tasvir. 2021,-B 26
27.
6. Bakiyev A.B., Maxkamov S. Zelenniye i malorasprostraneniye ovoshniye kulturi. -
Tashkent: Mexnat, 1987 ,-S. 45-47.
7. Bobrova R.A. Redkiye ovoshi. - Alma-Ata: Kaynar. 1980, -S. 69.
8. Balashov N.I: Rasshirit assortiment kultur // Selskoye xozyaystvo Uzbekistana.,
1972, -S. 45-46
9. Budin K.Z., Kobilevskaya K. Znachenie introduksii rasteniy v intensivatsii
selskogo xozyaystvo. // Mejdunarodniy s/x jurnal. 1975, -S. 32-36.
10. Budikina N.I. , Shabolina A.P. Virashivaniye kochannogo salata v vesenkix teplitsax
Karalskiy SNTI, 1988, -S. 2-4.